

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”



“TASDIQLANISHILDI”



Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Ro'yhatga olindi: BD-5111700-2.03

2018 - yil “13” 08

ONA TILI VA BOLALAR ADABIYOTI

FANDASTURI

Bilim sohasi:	100000 –	Gumanitar
Ta'lim sohasi:	140000 –	Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5111700 –	Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviyish

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018-yil "18" "08" dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil "25" "08" dagi 744-sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar: M.A. Hamrayev

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

D.X.Shodmonqulova

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida professori, filologiya fanlari nomzodi

X.J.Sattorova

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida dotsenti

Taqrizchilar:

Azimov I.M.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Eshmanov G'.J.

Nizomiy nomidagi TDPU xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish hududiy markazi "Til va adabiyot ta'lim" kafedrasida mudiri I.I.n.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O'quv - uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018 yil "28" "08" dagi 11-sonli bayonnomasi).

I. O'quv faninigdolzarbligiva oily kasbiyta`limdagi`rni

Mazkur fan dasturi umumiy tilshunoslik fani haqida qisqacha ma'lumot, o'zbek tili leksikologiyasi, frazeologiyasi, leksikografiyasi, hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at tarkibi, fonetik tizimi, grafikasi, orfografiyasi, orfoepiyasi, grammatik qurilishi, morfologiyasi, sintaksisi, punktuatsiyasi, o'zbek tili uslublari, bolalar adabiyoti haqidagi ma'lumotlarni qamrab olgan.

Ona tili fanini chuqur o'rganish uchun falsafa, tarix, etnografiya, adabiyotshunoslik fanlaridan xabardor bo'lish talab etiladi. Tilning rivojlanish tarixi millat tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Tilning lu g'at boyligida yuz beradigan o'zgarishlar jamiyat, xalq tarixida yuz bergan o'zgarishlar asosida amalga oshadi.

Badiiy adabiyot adabiy tilni yangiliklar bilan boyitish uchun juda katta ahamiyatga egadir, shuning uchun talabalarni til muammolarini hal qilishda badiiy adabiyotga tayanishga o'rgatish lozim.

Ona tili fanining amaliy ahamiyati quyidagilar bilan xarakterlanadi:

- har bir inson, ayniqsa, ziyoli inson o'z ona tilisining imkoniyatlaridan mumkin qadar unumli foydalana bilishi kerak;

- ona tili har bir millatni millat sifatida farqlantiradigan, shakllantiradigan buyuk ne'mat ekanligini tushunishimiz kerak;

- ona tili fani milliy til va uning tarkibiga kiruvchi adabiy tilning an'anaviy vazifalaridan tashqari, kompyuter lingvistikasining keng imkoniyatlarini hayotga tatbiq etishda katta rol o'ynaydi.

Ona tilini puxta o'rgatish maqsadida o'qituvchning dars jarayonida slaydlar, proyektor, diaproyektorlar kabi zamonavaiy texnologik vositalardan mohirona foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Texnik vositalar talabalarga o'qitilayotgan fanning mohiyatini chuqur anglashga imkon beradi, mash g'ulotning qiziqarliroq bo'lishiga, o'tilgan mavzuni eslab qolishga, vaqtni tejab qolishga yordam beradi.

II.O'quv fanining maqsad va vazifalari

Fanning asosiy maqsadi - bo'lajak o'qituvchilariga ona tilining fonetik xususiyatlari, talaffuz me'yorlari, lug'at (leksik) boyligi, imlo qoidalari va grammatik qurilishi yuzasidan nazariy bilim berish, talabalarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish va savodxonligini oshirish, takomillashtirish (bunda lotin yozuviga asoslangan imloni ham o'zlashtira borish) yuzasidan amaliy malaka hosil qilishdir.

Fanning vazifasi - ona tilining barcha bo'limlari yuzasidan talabalarga nazariy bilimlar berish va amaliyotda qo'llashga o'rgatish. Ona tilining davlat tili maqomini olishi hamda "Ta'lim to'g'risida" gi qonun materiallariga tayanish bilan bog'liq bo'lgan o'zgartishlar yetkazish.

Talabalar ona tili fanini o'zlashtirish jarayonida quyidagilarni:

- tilning ijtimoiy mohiyati va uning tarkibiy qismlarini, dunyo tillarining tasnifini, o'zbek tilining qaysi til oilasiiga va turkumiga kirishini; nutq a'zolarini, o'zbek tiliga xos unli va undosh tovushlarni, bo' g'in va ur g'uni, tovush o'zgarishlarini, o'zbek tili grafikasini, imlo va talaffuz qoidalari; hozirgi o'zbek

adabiy tilining lu g'at tarkibini, ma'no ko'chish usullarini, so'zlarning shakl va ma'no xususiyatga ko'ra turlarini, faol va nofaol, o'z va o'zlashgan qatlamni, o'zbek tili frazeologiyasini, milliy til tarkibiga kirgan guruhlarini (sheva, atama, eskirgan va yangi so'zlarni, jargon va argolarni, uyadosh va olinma so'zlarni); o'zbek tilidagi so'z yasaliş usullarini, morfemik tarkibni, mustaqil va yordamchi so'zlarni, modal, undov va taqlid so'zlarni; o'zbek tilidagi so'z birikmasi sintaksisini, gap sintaksisini, matn sintaksisini; o'zbek tili tinish belgilari tizimini, nutq uslublarini, uslubiyat turlarini *bilimga*;

Mazkur kursni o'rganish jarayonida talaba quyidagi:

- unli va undosh tovushlarni tasniflay bilish; so'zlarni bo' g'inlarga ajrata bilish va ur g'ularini to' g'ri qo'ya olish; o'zlashtirilgan qoidalarga asoslangan holda ma'nosi ko'zchgan so'zlarning ma'nolarini, omonim, sinonim, antonym va paronimlik xususiyatlariga ega bo'lgan so'zlarning ma'nolarini, atama, sheva, eskirgan va yangi so'zlarning ma'nolarini izohlay bilish; gap ichidagi yasama so'zlarni aniqlay bilish; so'z turkumlarining xususiyatlarini farqlay olish; gap tarkibidagi so'z birikmalari va gap bo'laklarini aniqlay bilish; tinish belgilarining qo'yilish sabablarini anglay olish; muayyan gaplarning qaysi uslubga tegishli ekanligini farqlay olish *ko'nikma*;

Ona tili fanini o'zlashtirgan talaba quyidagi:

- berilgan matndagi gaplarni fonetik, leksik, morfologik va sintaktik jihatdan to'liq tahlil qilish; mavjud tinish belgilarining qo'yilish o'rinlarini aniqlay olish va qo'yilish sabablarini to'liq tushuntira olish; tildagi mavjud birliklardan to' g'ri va o'rinli foydalana olish *malakasiga ega bo'lishi kerak*;

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-Modul. Kirish. Tilshunoslikdan umumiy ma'lumot

1-mavzu Til ijtimoiy, doim o'zgarib, rivojlanib turuvchi hodisadir. O'zbek tili - O'zbekiston Respublikasining Davlat tili ekanligi. Hozirgi o'zbek adabiy tilining tuzilish uzvlari (elementlari): tovushlar tizimi, leksikasi (yoki lu g'at tarkibi), grammatik qurilishi. Milliy va adabiy til. O'zbek adabiy tili va uning tayanch dialekti (lahjasi). Adabiy tilning o' g'zaki va yozma shakllari. Tilning paydo bo'lishi, tillarning taraqqiyoti, tillarning tasnifi.

2-Modul. Fonetika

2-mavzu . Fonetika haqida umumiy ma'lumot, uning nutq tovushlarini o'rganadigan soha ekanligi. Hozirgi o'zbek tilining fonetik tizimi (sistemesi) haqida ma'lumot. O'zbek tilining fonetik vositalari: nutq tovushlari, ur g'u, ohang (intonatsiya). Fonema, uning so'z ma'nosini farqlashdagi roli. Hozirgi o'zbek tilining fonemalari. Nutq a'zolari va ularning vazifasi. Nutq apparati. Artikulyatsiya. Artikulyatsiya o'rni va artikulyatsiya usuli. Fonetik akustika, tovush balandligi, kuchi, tembri, tempi va cho'ziqligi.

3-mavzu. Nutq tovushlari va ularning tasnifi. Unli va undosh tovushlar. Unli tovushlar, tilning gorizonta, vertikal harakatiga ko'ra hamda lablarning

ishtirokiga ko'ra unli tovushlar tasnifi. Undosh tovushlar, ularning artikulyatsiya (hosil bo'lish) o'rniga, usuliga ko'ra hamda ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra tasnifi.

4-mavzu. Nutqning asosiy fonetik birliklari: fraza (jumla), takt (sintagma), fonetik so'z, bo' g'in, tovush. Ur g'u va uning turlari: so'z ur g'usi (leksik ur g'u), gap ur g'usi (mantiqiy ur g'u); bo g'liq va erkin ur g'u. Ur g'u olmaydigan birliklar. Ur g'uning so'z ma'nosini farqlashdagi roli.

5-mavzu. Nutq jarayonida tovushlarning o'zgarish xususiyatlari: kombinator o'zgarishlar (assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza), pozitsion o'zgarishlar.

3-Modul. Grafika va orfografiya.

6-mavzu. O'zbek grafikasi (yozuv tizimi) haqida ma'lumot. Harf tilning asosiy grafik vositasi ekanligi. Tovush va harf. Alifbo (alfavit).

O'zbek imlosi va uning asosiy tamoyil(prinsip)lari; morfologik, fonetik, an'anaviy-etimologik, differensiyalash, grafik tamoyillar. Morfologik tamoyilning asosiy va yetakchi tamoyil ekanligi.

O'zbek imlosining asosiy qoidalari: ayrimharflar, o'zak-negizvaqo'shimchalar, qo'shmaso'zlar imlosi; bo' g'inko'chirish, boshharflarning yozilish qoidalari.

4-Modul. Orfoepiya.

7-mavzu. Orfoepiya haqida umumiy ma'lumot.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining orfoepik me'yorlari, unilalar orfoepiyasi, ayrim undoshlar orfoepiyasi, ayrim grammatik shakllar orfoepiyasi. Ayrim orfoepik me'yorlarning imlo qoidalari (orfografik me'yorlarga) mos kelmaslik hollari.

5-Modul. Leksikologiya.

8-mavzu. Leksika (lu g'at tarkibi) va leksikologiya haqida umumiy ma'lumot.

So'z til va nutqning eng muhim va asosiy birligi sifatida. So'zning leksik va grammatik ma'nosi.

9-mavzu. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. So'zning o'z va ko'chma ma'nosi. Ma'no ko'chirishning asosiy turlari; metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksiyadoshlik (ma'noning vazifaga ko'ra ko'chishi; ma'noning torayishi va kengayishi).

10-mavzu. O'zbek tilida so'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari haqida ma'lumot. Omonimlar, ularning ko'p ma'noli so'zlardan (polisemantizmlardan) farqi.

11-mavzu. Sinonimlar (ma'nodosh so'zlar) va sinonimiya qatori. Antonimlar. Paronimlar. Omonim, sinonim, antonim va paronimlarning asosiy turlari va nutqda qo'llanish xususiyatlari.

12-mavzu.Ona tili lug'at tarkibining ma'no jihatdan tavsiflanishi. Lug'at tarkibidagi so'zlarning kelib chiqishi jihatidan tavsiflanishi.

13- mavzu. Lug'at tarkibining ijtimoiy guruhlar tomonidan qo'llanishi jihatidan tavsiflanishi, Lug'at tarkibining ijtimoiy guruhlar tomonidan qo'llanishi haqida ma'lumot.

14-mavzu.Lug'at tarkibining faolligi yoki nofaolligi jihatidan tavsiflanishi;lug'at tarkibininghissiy-ta'siriy bo'yoqdorligi jihatidan tavsiflanishi.O'zbek tilining nofaol leksikasi, neologizmlar (yangi paydo bo'lgan so'zlar). Hissiy-ta'siriy jihatdan o'zbek tili leksikasi; umumiste'moldagi hissiy-ta'siriy bo'yoqsiz va bo'yoqdor so'zlar. Uslubiy jihatdan o'zbek tili leksikasi: uslublararo (yoki uslubiy betaraf) va uslubiy xoslangan leksika

6-Modul. Frazeologiya.

15-mavzu. Frazeologiya haqida ma'lumot. Frazeologizm til va nutq birligi sifatida. Frazeologik iboralarning ma'no xususiyatlariga ko'ra asosiy belgilari va turlari..Lug'at tarkibidagi ajralmas birikmalar – frazeologik birikmalarning ma'no va tarkib jihatidan tavsiflanishi.

7-Modul. Leksikografiya.

16-mavzu. Leksikografiya haqida umumiy ma'lumot. Lu g'atlar va ularning tiplari: ensiklopedik (qomusiy) va lingvistik (yoki filologik) lu g'atlar. Bir tilli va ko'p tilli lingvistik lu g'atlar. Bir tilli lingvistik lu g'atlarning tiplari.

8-Modul. Morfemika.

17-mavzu.Morfemika va morfema haqida umumiy ma'lumot. Morfema va uning turlari: o'zak morfema va affiksial (qo'shimcha) morfema. Affiksial morfemalarning turlari: so'z yasovchi, shakl yasovchi, so'z o'zgartuvchi affikslar. Shakl yasovchi affikslarning o'ziga xos xususiyatlari va turlari: kategorial va nokategorial shakl yasovchi affikslar. Affiksial morfemalariing tuzilishiga ko'ra turlari: sodda affikslar va qo'shma affikslar.

9-Modul. So'z yasalishi.

18-mavzu.So'z yasalishi haqida ma'lumot. Tub va yasama so'zlar .O'zbek tilida so'z yasash usullari: affiksatsiya, kompozitsiya, semantik, fonetik, abbreviatsiya. Affiksatsiya va kompozitsiya usullari - o'zbek tilida so'z yasashning eng asosiy usullari ekanligi.

10-Modul. Grammatika.

19-mavzu.Grammatika haqida umumiy ma'lumot. So'zning grammatik ma'nosi va grammatik shakli. So'zlarning sintetik, analitik, juft va takroriy, aralash hamda nol ko'rsatkichli shakllari. Grammatik kategoriya haqida umumiy ma'lumot. Grammatik kategoriya grammatik ma'no va ularni ifoda qiluvchi vositalar tizimi ekanligi. Morfologiya va sintaksis grammatikaning qismlari ekanligi.

11-Modul. Morfologiya.

20-mavzu. Morfologiya haqida umumiy ma'lumot. Morfologiya grammatikaning so'z turkumlari va shu turkumlarga xos kategorial, nokategorial shakllar tizimini, so'zning birikish vaqtidagi o'zgarishini tekshiradigan bo'limi ekanligi. So'zning morfologik tuzilishi so'z shaklining qismlaridan (shakl yasash uchun asos bo'luvchi hamda shakl hosil qiluvchi va so'z o'zgartuvchi affikslardan) iborat ekanligi.

21-mavzu. O'zbek tilida so'z turkumlari va ularni ajratish tamoyillari haqida umumiy ma'lumot. Hozirgi o'zbek tilida so'zlarning ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, ko'makchi, bo'g'lovchi, yuklama, modal so'z, undov so'z, taqlid so'z turkumlariga ajratilishi.

22-mavzu. Ot. Otlarning grammatik ma'nosi, morfologik belgilari, sintaktik vazifalari. Otning ma'no turlari: atoqli va turdosh ot, aniq va mavhum, yakka va jamlovchi otlar.

23-mavzu. Otlarda kelishik kategoriyasi. Otlarning yasalishi: affiksatsiya, kompozitsiya, abbreviatsiya usullari bilan ot yasash. Otlarda modal forma yasalishi. Otlarning tuzilish jihatdan turlari: sodda, qo'shma, qisqartma, juft otlar.

Otlarning tuzilish jihatdan turlari: sodda, qo'shma, qisqartma, juft otlar.

24-mavzu. Sifat. Uning o'ziga xos ma'nosi, morfologik xususiyatlari, sintaktik vazifalari. Belgini darajalab ko'rsata olishi - sifat darajalari: oddiy, qiyosiy va ortirma daraja. Sifatlarning otlashishi.

25 -mavzu. Sifatlarning yasalishi: affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan sifat yasash. Sifatlarda modal forma yasalishi. Sifatlarning tuzilish jihatdan turlari: sodda, qo'shma va juft sifatlar.

26-mavzu. Son. Sonning grammatik ma'nosi morfologik belgilari, sintaktik vazifasi. Sonlarning numerativ (sanoq) so'zlar bilan qo'llanishi. Sonlarning otlashish xususiyatlari.

Sonning ma'no turlari: miqdor son va tartib son. Miqdor son turlari: sanoq, dona, chama, jamlovchi va taqsim sonlar. Butun son va kasr son, kasrli son. Sonning tuzilish jihatdan turlari: sodda, tarkibli (yoki qo'shma), juft sonlar.

27-mavzu. Olmosh. Olmoshning grammatik ma'nosi, boshqaso'z turkumlariga morfologik ekvivalentligi (mosligi); otlashish xususiyatlari, gapdagivazifasi.

Olmoshlarning ma'no turlari: kishilik, o'zlik, ko'rsatish olmoshlari.

So'roq, belgilash, gumon, bo'lishsizlik olmoshlari. Olmosh tuzilish jihatdan turlari: sodda va murakkab olmoshlar.

28-mavzu. Fe'l. Fe'lning grammatik xususiyatlari (morfologik belgilari, sintaktik vazifalari). Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar, bo'lishsizlik ma'nosining ifodalanishi.

29-mavzu. Fe'l nisbat (daraja)lari: aniq, o'zlik, majhullik, birgalik, ortirma nisbatlarining grammatik ma'nosi va shakllari.

30-mavzu.Fe'ning vazifadosh shakllari - ma'lum bir sintaktik vazifa bajarishga mos shakllari: sof fe'l, harakat nomi. Sof fe'l, uning kesim vazifasini bajarishga moslashganligi. Harakat nomi, uning grammatik xususiyatlari, yasalishi; fe'lga va otga xos xususiyatlari.

31-mavzu:Fe'ning vazifadosh shakllari. Ravishdosh, uning grammatik ma'nosi, yasalishi; fe'l va ravishga xos xususiyatlari; Tuslanadigan va tuslanmaydigan ravishdoshlar.

Sifatdosh uning grammatik ma'nosi, yasalishi; fe'l va sifatga xos xususiyatlari: (otlashish, shuningdek, tuslanish, zamon ifodalash xususiyatlari).

32-mavzu.Fe'l mayllari (ijro mayli, shart va buyruq-istak mayli), ularning o'ziga xos xususiyatlari. To'liqsiz fe'l.

33-mavzu.Fe'lzamonlari, ularning turlari (o'tgan, hozirgiva kelasizamonfe'llari), o'tganzamonfe'lining turlari: yaqino'tganzamonfe'li, uzoqo'tganzamonfe'li, o'tganzamonhikoyafe'li, o'tganzamondavomfe'li, o'tganzamonmaqsadfe'li. Hozirgizamonfe'lining turlari: Hozirgi-kelasizamonfe'li, hozirgizamondavomfe'li, Kelasizamonfe'lining turlari: kelasizamongumonfe'li, kelasizamonmaqsadfe'li.

34-mavzu.Fe'ning tuslanishi. Shaxs-son (yoki tuslovchi) affiksalar. Ularning turlari: 1-guruh, 2-guruh, 3-guruh tuslovchilari; ularning qo'llanish xususiyatlari.

35-mavzu.Fe'ning yasalishi (affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan fe'l yasash).

36-mavzu. Fe'ning tuzilish jihatdan turlari: sodda va qo'shma fe'llar. Juft fe'llarning o'ziga xos xususiyatlari. Fe'ning modal ma'no ifodalovchi shakllari: sintetik va analitik shakllari. Ko'makchi fe'llar.

37-mavzu. Ravish. Ravishning grammatik ma'nosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifasi. Ravishlarning ma'no turlari: holat, miqdor-daraja, payt, o'rin sabab, maqsad ravishlari. Ravishlarda daraja (oddiy, qiyosiy, orttirma darajalar).

38-mavzu. Ravishlarning yasalishi: affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan ravish yasash. Ravishlarning tuzilish jihatdan turlari: sodda, qo'shma, juft va takroriy ravishlar.

39-mavzu.Yordamchi so'zlar. Ko'makchilar. Ularning grammatik xususiyati, turlari: asl ko'makchilar, ot ko'makchilar, fe'l ko'makchilar, Ko'makchi va kelishik qo'shimchalari. Ko'makchi otlar.

40-mavzu.Bo g'lovchilar. Ularning grammatik xususiyatlari. Bo g'lovchilarning qo'llanishiga ko'ra turlari: yakka bo g'lovchilar va takroriy bo g'lovchilar. Grammatik ma'no va vazifalariga ko'ra bo g'lovchilarning turlari: teng bo

g'lovchilar (biriktiruvchi, ziddovchi, ayiruvchi); ergashtiruvchi bo g'lovchilar (aniqllov, sabab, shart va to'siqsizlik, cho g'ishtiruv - o'xshatish bo g'lovchilari.)

41-mavzu. Yuklamalar. Yuklamalarning grammatik xususiyatlari. Yuklamalarni tuzilishiga ko'ra turlari: so'z yuklamalar va affiks yuklamalar. Yuklamalarning ma'no turlari: so'roq va taajjub, kuchaytiruv va ta'kid, ayiruv va chegaralov, aniqllov, gumon, inkor yuklamalari.

42-mavzu. Alohida guruh so'zlar. Modal so'zlar, ularning ma'no va grammatik xususiyatlari, sintaktik vazifalari.

43-mavzu. Undovlar. Ularning grammatik xususiyatlari. Undovlarning otlashishi, sintaktik vazifasi. Undovlarning turlari: his - hayajon (emotsional) va buyruq - xitob undovlari.

44-mavzu. Taqlidso'zlar. Ularning Grammatik xususiyatlari, otlashishi, taqlid so'zlarning sintaktik vazifasi; turlari: tovushga taqlid va shu'la-harakatga taqlid so'zlar.

12-Modul Bolalar adabiyoti

45-mavzu. Adabiyot (bolalar adabiyoti) fanining maqsad va vazifalari. Bolalar kitobxonligi haqida.

46-mavzu. Bolalar adabiyoti va bolalar folklorining mumtoz adabiyot namunalari bilan bog'liqligi.

47-mavzu. O'zbek bolalar adabiyotining vujudga kelishi. O'tgan asrning 30-40-yillaridagi o'zbek bolalar adabiyoti. Hozirgi davrdagi o'zbek bolalar adabiyoti.

48-mavzu. Alisher Navoiy va Gulxaniy ijodida ta'lim-tarbiya masalalari. Alisher Navoiy va Gulxaniyning qisqacha tarjimai holi. Alisher Navoiy va Gulxaniy asarlarida odob-ahloq tushunchasi.

49-mavzu. A. Avloniy va H.H. Niyoziy ijodida ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalar. A. Avloniy hayoti va ijodi. H.H. Niyoziy ma'rifati.

50-mavzu. G'afur G'ulom va Quddus Muhammadiyning hayoti va ijodiy faoliyati.

Quddus Muhammadiyning hayoti va ijodiy faoliyati. G'afur G'ulom ijodi tahlili.

51-mavzu. Zafar Diyor va Sh. Sa'dullaning hayoti va ijodi.

Zafar Diyor, Shukur Sa'dulla hayoti va ijodi haqida ma'lumot. Shukur Sa'dulla ijodi tahlili.

52-mavzu. Sulton Jo'ra va Hakim Nazirning hayoti va ijodi.

Sulton Jo'ra hayoti va ijodi tahlili. Hakim Nazir hayoti va ijodi tahlili.

53-mavzu. Po'lat Mo'min va Qudrat Hikmatning hayoti va ijodi.

Po'lat Mo'minning hayoti va ijodi tahlili . Qudrat Hikmatning hayoti va ijodi tahlili.

54-mavzu . Xudoyberdi To'xtaboyev va Farhod Musajon hayoti va ijodi.

Xudoyberdi To'xtaboyev hayoti va ijodi faoliyati haqida ma'lumot. . Farhod Musajon hayoti va ijodi faoliyati haqida ma'lumot.

55-mavzu . Miraziz A'zam va Tursunboy Adashboyev hayoti va ijodiy faoliyati.

Miraziz A'zam hayoti va ijodi. Tursunboy Adashboyev hayoti va ijodi

56-mavzu . Qambar Otaning va Muhammad Alining hayoti va ijodiy faoliyati.

Qambar Ota hayoti va ijodi .Muhammad Ali hayoti va ijodi

57-mavzu . Anvar Obidjon va Abusaid Ko'chimovning hayoti va ijodiy faoliyati.

Anvar Obidjon hayoti va ijodi. Abusaid Ko'chimov hayoti va ijodi.

58-mavzu . Hamza Imonberdiyev va Abdurahmon Akbar hayoti va ijodiy faoliyati.

Hamza Imonberdiyev hayoti va ijodi. Abdurahmon Akbarlarning hayoti va ijodi.

59-mavzu . Chet el bolalar adabiyotining umumiy tahlili. Sharl Perro, aka-uka Grimmlar bolalarga atalgan asarlarida ilgari surilgan g'oyalar.

Chet el bolalar adabiyotining umumiy tahlili. .Sharl Perro asarlari. .Aka-uka Grimmlar yaratgan ertaklarda ilgari surilgan g'oyalar.

60-mavzu . Xans Kristian Andersen, Aleksandr Sergeyevich Pushkin yaratgan ertak-dostonlarda ilgari surilgan g'oyalar.

Xans Kristian Andersen ijodining ko'p qirrali va rang-barang ekanligi. Aleksandr Sergeyevich Pushkin hayoti va ijodi.

61-mavzu . Nikolay Alekseyevich Nekrasov, Lev Tolstoy yaratgan ertak-dostonlarda ilgari surilgan g'oyalar.

Nikolay Alekseyevich Nekrasov , Lev Nikolayevich Tolstoy hayoti va ijodi.

Lev Nikolayevich Tolstoy asarlarining janr jihatdan rang-barangligi

62-mavzu . Samuil Marshak va Korney Chukovskiylarning bolalarga atab yozilgan asarlarida ilgari surilgan g'oyalar.

Samuil Marshak va Korney Chukovskiylarning hayoti va ijodi tahlili

13- Modul. Sintaksis.

63-mavzu Sintaksis haqida umumiy ma'lumot. So'z birikmasi, gap bo'lagi va gap sintaksisning tekshirish ob'ekti sifatida. Gapda so'zlarning o'zaro bo'lanishi; teng va ergash bo'lanish haqida umumiy ma'lumot. Ergash bo'lanish so'z birikmasini hosil qiluvchi sintaktik munosabat ekanligi.

So'z birikmasi. So'z birikmasining tuzilishi va grammatik ma'nolari. Birikma tarkibidagi so'zlarning aloqa turlari: boshqaruv, bitishuv, moslashuv. So'z

birikmalarining turlari: hokim soʻzning qaysi soʻz turkumidan ekanligiga koʻra turalri (otli, feʼli, ravishli, sifatli, modal soʻzli birikmalar). Tobe soʻzning sintaktik vazifasiga koʻra turlari (toʻldiruvchili, aniqlovchili, holli soʻz birikmalari). Tuzilishiga koʻra turlari: sodda soʻz birikmalari, murakkab soʻz birikmalari.

64-mavzu.Gap. Gap - kommunikativ (aloqa) birlik sifatida. Ifoda maqsadiga koʻra gap turlari: darak, soʻroq, buyruq gaplar. His-hayajon (undov) gaplar, ularning turlari (darak-undov, soʻroq-undov, buyruq-undov gaplar).

65-mavzu.Gapning tuzilish jihatdan turlari: sodda gaplar, qoʻshma gaplar, oʻzga gapli qurilmalar. Sodda gap haqida umumiy maʼlumot. Boʻlaklarga boʻlinadigan va boʻlaklarga boʻlinmaydigan sodda gaplar; boʻlaklarga boʻlinadigan gap turiari: ikki sostavli (ikki bosh boʻlakli) va bir sostavli gaplar; yi gʻiq va yoyiq, toʻliq va toʻliqsiz gaplar. Ikkinchi darajali boʻlaklarning ishtirokiga koʻra gap tiplari: aniqlovchili yoyiq gap, toʻldiruvchili yoyiq gap, Holli yoyiq gap, aralash holda tuzilgan yoyiq gap.

66-mavzu.Gap boʻlaklari haqida umumiy maʼlumot. Ega va kesim (bosh boʻlaklar) ikki sostavli gaplarni shakllantiruvchi predikativ birliklar ekanligi. Ega va uning ifodalanishi.

67-mavzu.Kesim, uning ifodalanishi, tiplari: feʼl-kesim va ot-kesim; sodda va tarkibli kesim.

68-mavzu .Ega bilan kesimning orasida tirening ishlatilishi.

Ega bilan kesimning orasida tirening ishlatilishi haqida maʼlumot.

69-mavzu.Gapning ikkinchi darajali boʻlaklari (toʻldiruvchi, aniqlovchi, hol). Toʻldiruvchi va uning ifodalanishi. Vositasiz va vositali toʻldiruvchilar, ularning shakllanishi.

70-mavzu.Aniqlovchi va uning ifodalanishi. Sifatlovchi, qaratuvchi, izohlovchilar aniqlovchining turlari ekanligi.

71-mavzu.Hol, uning turlari: ravish, payt, oʻrin, sabab va maqsad hollari.

72-mavzu.Miqdor-daraja, shart va toʻsiqsizlik hollari, ularning ifodalanishi. Gap boʻlaklarining joylashish tartibi.

73-mavzu.Gapning uyushiq boʻlaklari; uyushishning ifoda vositalari: sanash ohangi va teng boʻgʻlovchilar. Uyushiq boʻlakli gaplarda umumiy va umumlashtiruvchi birliklarning qoʻllanishi. Uyushiq boʻlakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.

74-mavzu.Gapning ajratilgan boʻlaklari, ularning ajratilish sabablari. Ajratilgan boʻlaklarning turlari: ajratilgan ega, ajratilgan ajratilgan kesim, ajratilgan

aniqlovchi (ajratilgan sifatlovchi, ajratilgan qaratqich, ajratilgan izohlovchi), ajratilgan to'ldiruvchi, ajratilgan hol. Ajratilgan bo'lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.

75-mavzu. Gap bo'laklari sanalmaydigan birliklar (so'z va birikmalar) haqida ma'lumot: undalma, uning boshqa gap bo'laklari bilan grammatik bo'g'lanmaslik va o'ziga xos ohang xususiyatlari

76-mavzu. Kirish so'z, kirish birikma va kiritma gaplar; ularning boshqa gap bo'laklari bilan grammatik bo'g'lanmaslik va o'ziga xos ohang xususiyatlari. Ularda tinish belgilarining ishlatilishi.

77-mavzu. Sodda gap turlari: bir bosh bo'lakli gaplar va ikki bosh bo'lakli gaplar, ularning turlari. Bir bosh bo'lakli (bir sostavli) gaplar, ularning tiplari: egasiz va kesimsiz bir bosh bo'lakli gaplar. Egasiz bir bosh bo'lakli gap turlari (egasi topiladigan va egasi topilmaydigan gaplar

Egasi topiladigan gaplar: shaxsi aniq, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan gaplar. Egasi topilmaydigan- shaxtsiz gaplar. Kesimsiz bir bosh bo'lakli gap - atov (yoki nominativ) gap ekanligi.

78-mavzu. Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar (so'z-gaplar), ularning o'ziga xos xususiyatlari. To'liq va to'liqsiz gaplar. To'liqsiz gaplarning tuzilish va qo'llanish xususiyatlari.

79-mavzu. Qo'shma gap. Qo'shma gap haqida umumiy ma'lumot. Komponent (qism)larning birikish usuliga ko'ra qo'shma gap turlari: bo'g'langan qo'shma gap, ergashgan (ergash gapli) qo'shma gap, bo'g'lovchisiz qo'shma gap.

80--mavzu. Bo'g'langan qo'shma gap. Bo'g'langan qo'shma gap qismlarining mazmun munosabati. Komponent (qism)lar orasidagi teng aloqa bo'g'langan qo'shma gap qismlarining o'zaro bo'g'lanish usuli ekanligi. Teng bo'g'lovchilar, teng bo'g'lovchi vazifasidagi ayrim yuklamalar, "bo'lsa", "esa" so'z shakllari bo'g'langan qo'shma gap qismlarini bo'g'lovchi vositalar ekanligi. Bo'g'langan qo'shma gap qismlari (komponentlari) orasida tinish belgilarining ishlatilishi.

81-mavzu. Ergashgan qo'shma gap. Ergashgan qo'shma gap - bosh va ergash gaplarning tobelik munosabati asosida vujudga keladigan sintaktik birlik sifatida. Bosh va ergash gap, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Ergashtruvchi bo'g'lovchilar, shu vazifadagi ayrim yuklamalar, ko'makchilar, nisbiy so'zlar, turli fe'l shakllari (fe'lning shart, buyruq-istak shakllari. shuningdek, ravishdosh, sifatdosh va to'liqsiz fe'l ergash gapni bosh gapga bo'g'lovchi vositalar ekanligi.

82-83- mavzu. Ergashgan qo'shma gapning turlari: ega ergash gapli qo'shma gap, kesim ergash gapli qo'shma gap, to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap, aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap, ravish ergash gapli qo'shma gap, daraja-

miqdor ergash gapli qo'shma gap, payt ergash gapli qo'shma gap, o'rin ergash gapli qo'shma gap, sabab ergash gapli qo'shma gap, o'xshatish ergash gapli qo'shma gap, shart ergash gapli qo'shma gap, to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap, natija ergash gapli qo'shma gap. Bunday gaplarda ergash gapning bosh gapdagi biror bo'lakni (qismni) yoki butun bir bosh gapni izohlash xususiyati. Ergashgan qo'shma gap komponentlari orasida tinish belgilarining ishlatilishi.

